

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ISTIQLOL DAVRI ADABIY TANQIDCHILIGINING O'RGANILISHI (Q.Qahramonov ijodi misolida)

Shoira Axmedova,
BuxDU professori,
filologiya fanlari doktori

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyotshunos va tanqidchi Q.Qahramonovning istiqlol davri tanqidchiligining o'rganilishiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Olim tadqiqotlarida adabiyotshunosligimizda kam o'rganilgan adabiy tanqid takomilida metodologiyaning o'rni, adabiy tanqidda yondashuv, tahlil va talqin takomilining metodologik asoslari, badiiy tafakkurdagi yangilanish masalalariga e'tibor qaratilganligi ko'rsatib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** adabiy tanqid, metodologiya, yangilanish, tahlil, talqin, modernizm, milliy uyg'onish davri adabiyoti*

Mustaqillik yillarida adabiy tanqid metodologiyasining yangilanishi adabiy tanqid tafakkuridagi yangilanish jarayonlari va unga asos bo'lgan omillarini tadqiq etish, madaniy merosni, xususan, XX asr o'zbek adabiyotini qayta baholash yuzasidan adabiy jarayonda kechgan va kechayotgan izlanishlarni turli yondashuv va usullar asosida yangicha o'rganish, adabiy jarayondagi xilma-xil shakl va uslub izlanishlarini badiylikning yangicha mezonlari asosida tadqiq etish yetuk adabiyotshunos, professor Qurdosh Qahramonov tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Binobarin, Istiqlol davrida yaratilgan adabiy-tanqidiy materiallarni adabiyotshunoslik metodologiyasi nuqtayi nazaridan tadqiq etish va shu asosda istiqlol davri adabiy tanqidchiligining sho'ro davri metodologiyasidan farq qiluvchi konsepsiya, yo'nalish va tamoyillarini tadqiq etishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan olim bugungi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan istiqlol davri tanqidchiligidagi sifat o'zgarishlarni, metodologik plyurealizmga o'tish jarayonlarini tadqiq etish yo'lidan borib, adabiy tanqidchilikda kam tadqiq etilgan muammoni yoritishga muvaffaq bo'ldi.

Izlanuvchan olimning bu sohadagi qarashlarini quyidagi yo'nalishlarga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Adabiy tanqidda yangicha metodologik tamoyillarning vujudga kelish jarayoni va omillarini ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Bunda adabiy tanqid metodologik asoslarining yangilanishi deganda, eng avvalo falsafiy, ilmiy-nazariy, badiiy-estetik, moddiy-ma'naviy, psixologik, ijtimoiy-tarixiy va mafkuraviy asoslar nazarda tutilgan. Mazkur asoslarning sho'ro davridagidan mohiyat jihatdan yangilanishi--adabiy tanqid metodologiyasining yangilanish tamoyillaridan biri sifatida xarakterli ekanligi ta'kidlanib, Istiqlol davri adabiy tanqidchiligini yangilanish tamoyillari

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

asosida tushunish, bilish va anglashga intilish ustuvor konsepsiyaga aylana borishi ochib berildi.

2. Badiiylik mezonlari va asoslari talqinidagi yetakchi konsepsiyalar belgilandi. Adabiy tanqididagi yana bir muhim muammo adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yaratilayotgan badiiy adabiyot namunalariga munosabat masalasini tadqiq etilar ekan, badiiy asarni yangicha metodologik tamoyillar asosida tahlil va talqin qilish, birinchi galda, unga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashuv kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylangani hamda bu adabiy tanqidning ham nazariy, ham amaliy faoliyatiga aloqador masalalardan biri sifatida qaraladi. Badiiy asar matnini teran kuzatish orqali so‘zlar, iboralar, ishoralarda yashiringan mohiyatni ochib berishga intilish-bu davr adabiy tanqidida bo‘y ko‘rsata boshlagan metodologik tamoyillardan biri ekanligini olim ustozi, akademik B.Nazarovning G‘.G‘ulom ijodiga xos bo‘lgan insonparvarlik, xalqparvarlik motivlari ko‘rsatib berilgan “G‘afur G‘ulom olami” tadqiqotini tahlil qilish asosida yoritib beradi.

3. Olim tadqiqotlarida milliy uyg‘onish adabiyoti namoyandalari, eng avvalo, Qodiriy, Fitrat va Cho‘lpon ijodini qayta baholashdagi yetakchi tamoyillarni ochishga, shu bilan birga sho‘ro davrida yashab ijod etgan G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor, H.Olimjon kabi keksa avlod ijodiga munosabatni yangilanayotgan metodologik tamoyil sifatida talqin etishga intiladi. XX asr o‘zbek adabiyoti salafлари, jumladan, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor va H.Olimjondek atoqli ijodkorlar hayoti va ijodini, umuman, ular mansub bo‘lgan davr adabiyotini qayta xolis baholash hamda ular qoldirgan boy adabiy merosga qadriyatlar sifatida yondashuv adabiy tanqid metodologiyasining muhim tamoyillaridan biriga aylanib borayotganligi, keyingi yillar adabiyotshunosligi va tanqidchiligida, ayniqsa, XX asr o‘zbek adabiyotini bugungi yangilanayotgan tafakkur, yangicha ilmiy konsepsiya va metodologik tamoyillar asosida qayta baholash va undan bugungi kun uchun zarur xulosalar chiqarish asosiy tamoyillardan biri bo‘lib qolganligi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalar e’tiborlidir.

Adabiy tanqidning bu boradagi izlanishlarini olim ikki yo‘nalishda tadqiq etadi: birinchisi, adabiy tanqid faoliyatida milliy uyg‘onish adabiyoti va uning yetakchi namoyandalari ijodini qayta, xolis va har tomonlama o‘rganishga qiziqishning kuchayishi; ikkinchisi esa, sho‘ro davrida yashab ijod qilgan va bu davr adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan adiblar ijodini yangicha prinsiplar asosida qayta baholash.

Olim o‘z kuzatishlarida adabiy tanqidning muhim tamoyillaridan yana birini, shubhasiz, eng avvalo, ijodkor dunyoqarashi, poetik olami va voqelikni badiiy-estetik kashf qilish jarayoni- badiiy matnni tahlil va talqin qilishda yangicha mezon va

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

metodologik tamoyillarga asoslanishda ko‘radi. Bu borada, ayniqsa, Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon ijodlari bo‘yicha Istiqlol davrida yaratilgan tadqiqotlarga munosabat bildiradi.

Mustaqillik davri adabiy tanqidchiligini izchillik bilan o‘rganar ekan, Q.Qahramonov adabiy jarayondagi ijodiy izlanishlar va badiiy asarlar tahlilidagi o‘ziga xosliklarni ham aniqlashga kirishadi. Bundan tashqari, adabiy tanqidda badiiy asarga ko‘plab falsafiy, badiiy-estetik mezonlar asosida yondashishning kuchayishi, tahlilning turli-tuman usullaridan unumli foydalanishga intilish ilmiy bilishda metodologik plyuralizmga o‘tilayotganligidan deb hisoblaydi.

Olim qarashlarining eng muhim jihatlaridan biri shuki, u adabiy tanqidning muhim metodologik asoslaridan biri – ifoda usuli va uslubiy o‘ziga xosligi uning ham ilmiy va ham badiiy ijodga birdek daxldorligida deb ko‘rsatadi va adabiy tanqidga ilmiy tafakkurning obrazli fikrlash tarzi bilan bog‘liq ifodasi sifatida qaraydiki, bu adabiyot rivojida katta o‘rin tutadigan adabiy tanqidning bosh mehvari hisoblanadi. Badiiy asarni tayyor nazariy qoliqlar vositasida emas, balki matn tahlilidan kelib chiqib talqin etish yetakchi tamoyilga aylana boshlanganligi misollar asosida dalillanadi.

Tanqidiy tafakkurda zamon va makon, tarix va inson, millat va vatan tuyg‘usi kabi tushunchalarning yangilanish asoslarini ko‘rsatish yo‘lidan borar ekan, olim adabiy tanqid metodologiyasining yangilanish tamoyillaridan yana biri asarning badiiy-estetik mohiyatini yangicha ilmiy tafakkur asosida talqin etishida ko‘rinadi degan qarashni ilgari suradi. Shu bilan birga adabiy-tanqidiy tafakkurning yangilanishiga mustaqillikning ta’siri masalasini tadqiq etish jarayonida adabiy tanqidning keyingi o‘n-o‘n besh yildagi faoliyatini ko‘zdan kechirib, uning metodologik tamoyillari sho‘ro davridagidan mutlaqo farqli tarzda, erkin qarashlarga, ezgu g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan milliy mafkura tamoyillariga mushtarakligiga urg‘u beradi.

Olimning kuzatishlarida adabiy tanqidda yondashuv, tahlil va talqin takomilining metodologik asoslarini atroflicha tadqiq etilganligi yorqin namoyon bo‘ladi. Masalan, adabiy jarayonni, badiiy asarni kompleks o‘rganish sistemali tahlilning asosini tashkil qilishini ta’kidlar ekan, u shunday yozadi: “Sistemali yondashuvda tadqiqotchi tahlil jarayonida badiiy asarning ham estetik, ham ijtimoiy, falsafiy, mafkuraviy va publitsistik jihatlarini to‘liq qamrab olishga e’tibor berishi lozim. Shu ma’noda, istiqlol davri tanqidchiligi namunalarini ko‘zdan kechirsak, tahlil jarayonida barcha usullarga keng murojaat qilinganligini ko‘rishimiz mumkin”.

Q.Qahramonovning adabiy tanqidda qizg‘in kechgan o‘zbek she’riyati tadqiqi va talqiniga bag‘ishlangan bahs-munozaralar, ularda yangilanayotgan badiiy

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tafakkurning yetakchi xususiyatlari, bu jihat istiqlol davri tanqidchiligining yetakchi tamoyillaridan biriga aylanganligi, shu bilan o‘zbek tanqidchiligida modernizm xususidagi bahslarning o‘rni va ahamiyati haqidagi kuzatishlari ham e’tiborlidir. Olim adabiy tanqidda modernizmga oid bahs-munozalar, absurd va ekzistensializm, struktural metod va psixoanalitikaga oid kuzatishlarga yangicha yondashuvlar sifatida qaraydi. O‘zbek adabiyotidagi modernistik asarlar talqin etilgan maqolalar inson mohiyati va ruhiyatini badiiylikning yangicha mezonlari asosida baholovchi kuzatishlar ekanligini tahlillar asosida ko‘rsatib berilgan. O‘zbek adabiy tanqidchiligida modernizm haqidagi kuzatishlar rus va jahon adabiyotshunosligidagi qarashlar bilan qiyosan tadqiq etilganligi va ilmiy xulosalar chiqarilganligi olimning istiqlol davri tanqidchiligini atroflicha va chuqur tadqiq etganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda muborak 70 yoshini qarshilayotgan Q.Qahramonov o‘zbek bolalar adabiyoti va uning vakillari ijodi, hozirgi adabiy jarayon haqida ham qator tadqiqotlar, risolalar, maqolalar yaratdi, biz ustozimiz akademik B.Nazarov rahbarligida hamkorlikda bakalavr talabalar uchun “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligini yaratdik, hamkorligimiz davom etmoqda: magistrilar uchun “Adabiy tanqid nazariyasi” darsligi ustidagi ishlarimiz nihoyasiga yetay deb qoldi. Ilm yo‘lida kamtarlik va zahmatkashlikni o‘ziga yo‘lchi qilib olgan, o‘zbek adabiyotshunosligining ravnaqi yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan Ustozga uzoq umr tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahramonov Q. Adabiy tanqidda yangilanish jarayonlari. –T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2009.
2. Qahramonov Q. Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari. Fil. fanl.doktori.....diss. – Toshkent, 2011.
3. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
4. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
5. Rasulova, U. (2024). Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini. *Uzbekistan: yazyk i kultura*, 1(1), 33-45.